

## **TUPROQ EROZIYASI VA OQIBATLARI, UNGA QARSHI CHORA TADBIRLAR**

**Qudratova Aziza Xaydar qizi,  
Choriyeva Qunduzxon Shuhratovna**  
Toshkent davlat agrar universiteti  
Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan  
foydalanish yo‘nalishi talabalari

**Karimova Nilufar Olimjonovna**  
Agrokimyo va tuproqshunoslik yo‘nalishi talabasi

**Mirzahamdamova Shohsanam Komiljon qizi**  
Ösimliklarni himoya qilish (ekin turlaribo‘yicha) yo‘nalishi talabasi

*Annotatsiya: Insoniyat tarixida rivojlanishni kuzatmaslikni iloji yòq bir paytda aholiga ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish asosiy masalalardan biriga aylanib kelmoqda. Aholi sonining keskin oshib borishi natijasida yerlardan unumli foydalanish maqsadida turli agrotexnik tadbirlar, sug‘orish tizimlari ishlab chiqilmoqda. Lekin uquvsizlik, xato hisoblashlar va turli tabiiy faktorlar natijasida tuproqning unumdon qatlami yemirilib bormoqda. Bilamizki, qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar maydonini oshirish qiyin bir masala bo‘lsa, shu yerlarni saqlab qolish undan ham muhimroq masaladir. Eng birinchi navbatda yuzaga kelayotgan vaziyatlarning sabablari o‘rganilib, unga qarshi chora tadbirlar ishlab chiqiladi. Bu maqola ham aynan shu mavzuda olib borilgan izlanishlar natijalarini, o‘rganishlar xulosalarini umumlashtirishga qaratilgan.*

*Kalit so‘zlar: Eroziya, suv eroziyasi, shamol eroziyasi, faktorlar, antropogen omillar, nishablik, agrotexnik tadbirlar, mikroflora.*

**Kirish.** Yerdan noratsional foydalanish natijasida insoniyat tarixiy rivojlanish davri mobaynida 1,5 milliard gektardan 2 milliard gektargacha hosildor yerni, ya’ni butun ekin maydonidan ko‘prog‘ini yo‘qotdi.

Umuman olganda tuproq unumdorligining pasayishi hozirgi vaqtda butun yer yuzasining 30-50 foizida kuzatilmoxda. Ayni shunday ekan, tuproq eroziyasi o‘zi nima? Tuproq eroziyasi turli xil ta’riflarga ega bo‘lib, yerning unumdor qatlamining tabiiy faktorlar yoki antropogen omillar natijasida yemirilishiga aytildi. Tuproq eroziyasidan suv, shamol eroziyalari keng tarqalgan bo‘lib, anchagina yerlarni unumdorligini yo‘qolishiga sabab bo‘lgan. Suv harakati yer relefiga bog‘liq bo‘lib, nishablikning ortishi suv eroziyasiga sabab bo‘ladi. Shamol eroziyasi natijasida tuproqning ayni unumdor qatlamiga zarar yetkaziladi. Tuproq yuza qatlamining yuvilib ketilishi uning tarkibidagi azot, fosfor, kaliy, gumus miqdorining kamayishiga olib keladi. Tabiiy sharoitda tuproqning 1 sm unumdor qatlamining qayta tiklanishiga 100 yildan ming yilgacha vaqt kerak bo‘ladi. L.A.G‘afurova ma’lumotlariga ko‘ra, eroziya jarayoni birgina gumus va ozuqa elementlarini yo‘q qilish bilan cheklanmasdan, ular bilan birlgilikda ekotizimning biomassasida to‘planadigan quyosh energiyasining ham kamayishiga olib keladi.

A.A.Xonazarov butun O‘rta Osiyoda tog‘ va tog‘ oldi zonalarida eroziyani o‘rganish va unga qarshi kurash chora-tadbirlarini tavsiya etishga katta hissa qo‘sghan yirik olimdir. 1970 yildan boshlab tabiiy va sun’iy o‘rmonzlarning (archazor, yong‘oqzor va aralash o‘rmonlarda) gidrologik o‘rnini o‘rganish bo‘yicha chuqur statsionar ilmiy ishlar olim tomonidan amalga oshirildi. Bundan maqsad o‘rmonzlarning tog‘ daryolarini jilovlashdagi o‘rni va eroziya, sel hodisalarining oldini olishdir. 20 yildan oshiq bu izlanishlar natijasida tog‘ qiyaliklari va soylardagi eroziya hajmini, jarlanishlarni, jarliklarning barpo bo‘lishi aniqlandi. A.A.Xonazarov tog‘lardagi o‘rmonzlarning suv saqlash, suvni jilovlash, tuproqlarni eroziyadan saqlash va ularning ekologik ahamiyatlarini birinchi marotaba ilmiy asoslab berdi. Buning natijasida eroziyadan saqlanishning gidrotexnik inshootlarning sodda turlari ishlab chiqarishga tavsiya etilgan.

Tuproq eroziya jarayonlariga qarshi o'simliklar qoplami muhim ta'sir ko'rsatadi. O'simliklar qoplami tuproq eroziyasining boshlanishi va dastlabki rivojlanish jarayonlariga qarshi eng muhim chora-tadbirlardan biri. Aynan shu borada T.Sh.Shamsiddinov, X.M.Maxsudov, Z.Tillaxodjayevalar Toshkent viloyati Parkent tumanida tadqiqotlar olib borishgan. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, eroziyalangan to'q tusli bo'z tuproqlarda donli ekinlarning rivojlanishi sustlashadi, o'rtacha va kuchli eroziyalangan tuproqlarda hosildorlik va uning sifati sezilarli darajada kamayib ketadi. Eroziyalangan to'q tusli bo'z tuproqlarda suv-fizik xossalarini, ozuqali suv rejimini yomonlashishi umumiyligini qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.[2]

Tuproqlarning eroziyaga uchrashi uning agrokimiyovik, fizik, mexanik xossalariga ta'sir etibgina qolmay, tuproq mikroflorasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tuproqdagagi mikrobiologik jarayonlarning jadalligi mikrofloraning miqdor va sifat ko'rsatkichlari, tuproq harorati, mexanik tarkibi, organik moddalar bilan ta'minlanganlik darjasasi, suv-fizik xossalari, eroziyalanganlik ko'rsatkichlariga bog'liq bo'ladi. Eroziya jarayonlari va qiyalik ekspozitsiyasi o'r ganilgan tuproqlarni mikroorganizmlar miqdoriga ta'sir etganligi G.S.Sodiqova va A.R.Otaqulovlar tomonidan qayd etilgan. O'rtacha eroziyaga uchragan tuproqlarda ammonifikatorlar miqdori yuqori qatlamda 350 ming ta bo'lsa, pastki qatlamda 150 ming taga teng, eroziyaga uchramagan tuproqlarda esa 482 ming ta va pastki qatlamda 203 ming tani tashkil etadi. Ma'lumotlarga ko'ra eroziyalangan tuproqlarda mikroorganizmlar soni kamayishini ko'rishimiz mumkin. O'r ganilgan tuproqlarda denitrifikatorlar miqdori eroziyalanish darajasiga ko'ra ham farqlanishi kuzatildi.[3] Yuqorida aytib o'tilganidek eroziyaga uchragan tuproqlarning xossalari yomonlashuvi tarkibidagi foydali mikroorganizmlar faoliyati va soniga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda tuproq unumdligining kamayishiga olib keladi. Bu esa qishloq xo'jaligi ekinlarining oziqlanish rejimining buzilishiga hamda hosildorligining kamayishiga sabab bo'ladi.

Tuproq eroziyasiga qarshi chora tadbirlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash muhim masalalardan biri. Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, o'simliklar

qatlamiga va sug‘orish tartiblariga e’tibor berish avvalo eroziyadan saqlanishda ahamiyatli bo‘lsa, yer yuzasidagi suvlar oqimini bir me’yorga keltirish, tuproqni yuvilishdan saqlash, sug‘orish jarayonida bir joyga suvni to‘planib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik, eroziyalangan sug‘oriladigan tuproqlar, lalmikor, yaylov yerlarning unumdorligini oshirish, mikroflorasini yaxshilash kabi chora-tadbirlar natijasida eroziyaga qarshi kurash olib boriladi. Qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishda agrotexnik tadbirlarga e’tibor berish lozim. Ko‘p holatlarda meliorativ tadbirlarni xato tashkil etilishi natijasida ham tuproqning eroziyaga uchrashini kuzatamiz, shuning uchun meliorativ tadbirlarni to‘g‘ri hisob-kitoblar natijasida tashkil etish hamda olib borish eroziyalanishga qarshi profilaktik va samarali usullardan biri hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. “Tuproqshunoslikka kirish” A.Toxtasin, L.Tursunov, Z.Jabborov, H.Artikov, M.Qaxarova. Toshkent-2015
2. “Tuproq unumdorligi va boshqqli ekinlar hosildorligiga eroziyaning ta’siri” T.Sh.Shamsiddinov, X.M.Maxsudov, Z.Tillaxodjayeva
3. “Boysun tog‘i tuproqlari mikroflorasi va unga eroziya jarayonlarining ta’siri” G.S.Sodiqova, A.R.Otaqulov
4. “Dehqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari” S.A.Azimboyev Toshkent-2006
5. “Tuproq eroziyasi va undan himoyalanish chora tadbirlari” S.T.Tuxtabayev, M.A.Gapparova “Tafakkur manzili”
6. “Tuproq eroziyasi dehqonchilik uchun ofat” Muhamedov Toshkent-1973
7. “O‘zbekistonda tuproq eroziyasi va unga qarshi kurash choralar” Muxitdinov Toshkent-1976